

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMALSHTIRISH: GERMANIYA HUQUQIY AXBOROT TIZIMI MISOLIDA

Nosirov Nasimjon Qosimjon o'g'li

Illinois universiteti, LL.M

Annotatsiya: Ma'lumki, **Germaniya Federativ Respublikasi** qonun ijodkorligi, qonunlar ijrosini ta'minlash va uni aholi keng qatlamiga yetkazish sohasida yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda, nemis qonunchiligi o'zining nisbatan murakkab tili va o'ziga xos texnikasi bilan ham ajralib turadi. Biroq, bu atayin aholiga tushunish qiyin bo'lishi uchun joriy qilingan tizim emas. Qonunning murakkabligi, shunchaki ularni qabul qilishda juda ko'plab organlar jalb qilinishi, ko'pincha qiyin mavzularni bir necha marta tekshirilishi hamda bu to'g'risida barcha fuqarolarga doimiy ma'lumot taqdim etib turilishi bilan izohlanadi. Jarayonning murakkabligi aslida demokratiya va qonun ustuvorligi tamoyillarini aks ettiradi. Mazkur tamoyillar e'tiborga olinmaydigan joylarda – totalitar rejimlar va harbiy diktaturalarda qonunlarni qabul qilish tez va oson kechadi. Bunday davlatlarda qonunlarning ijrosi adolatsiz va samarasiz amalga oshirilishi ham tasodifiy hol emas.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, axborot tizimlari, qonunchilik, qonun ustuvorligi, harbiy diktaturalar, davlat, ma'lumotlar, demokratiya.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВИЗАЦИЯ: СЛУЧАЙ НЕМЕЦКОЙ ПРАВОВОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ

Носиров Насимжон Косимжон угли

Университет Иллинойса, LL.M

Аннотация: Известно, что Федеративная Республика Германия является одной из ведущих стран в области законотворчества, обеспечивая реализацию законов и их распространение среди широких слоев населения.

При этом немецкое законодательство также отличается относительно сложным языком и уникальными приемами. Однако это не система, которая была намеренно введена для затруднения понимания населением. Сложность закона объясняется просто тем, что в его принятии участвует большое количество органов, часто сложные вопросы проверяются по несколько раз, и все граждане постоянно информируются об этом. Сложность процесса на самом деле отражает принципы демократии и верховенства права. В местах, где эти принципы не учитываются — в тоталитарных режимах и военных диктатурах — принятие законов происходит быстро и легко. Неслучайно реализация законов в таких странах несправедлива и неэффективна.

Ключевые слова: искусственный интеллект, информационные системы, законодательство, верховенство права, военные диктатуры, государство, данные, демократия.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITALIZATION: THE CASE OF THE GERMAN LEGAL INFORMATION SYSTEM

Nosirov Nasimjon Qosimjon ugli

University of Illinois, LL.M

Abstract: It is known that the Federal Republic of Germany is one of the leading countries in the field of lawmaking, ensuring the implementation of laws and their dissemination to a wide range of the population. At the same time, German legislation is also distinguished by its relatively complex language and unique techniques. However, this is not a system that was deliberately introduced to make it difficult for the population to understand. The complexity of the law is simply explained by the fact that a large number of bodies are involved in their adoption, often difficult issues are checked several times, and all citizens are constantly informed about this. The complexity of the process actually reflects the principles of democracy and the rule of law. In places where these principles are not taken into account - in totalitarian regimes and military dictatorships - the

adoption of laws is quick and easy. It is no coincidence that the implementation of laws in such countries is unfair and ineffective.

Keywords: artificial intelligence, information systems, legislation, rule of law, military dictatorships, state, data, democracy.

Germaniya Federativ Respublikasining yangi qabul qilingan qonunlari **Germaniya Federal qonun gazetasi (Bundesgesetzblatt)** orqali e'lon qilinadi¹. Mazkur gazeta (I, II va III qismlardan iborat) Germaniya Federativ Respublikasining rasmiy nashri hisoblanadi. U birinchi navbatda federal qonunlarni e'lon qilish manbasi bo'lib, Bonn shahrida Federal Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vazirligi (Bundesministerium der Justiz) tomonidan nashr etiladi.

Bundesgesetzblattda qonunning e'lon qilinishi qonunchilik jarayonining yakuniy bosqichidir. Bu har qanday qonunning kuchga kirishi uchun rasmiy talab sanaladi (Germaniya Konstitutsiyasining 82-moddasi 1-qismi 1-bandi)². Federal qonun gazetasi 1998-yildan Internetda elektron tarzda ham e'lon qilinib kelinmoqda.

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasida aholining keng qatlamiga **16 shtat(Lunder)**ning o'z rasmiy manbalari orqali ham huquqiy axborot berib boriladi.

Federal ma'muriy qoidalar va tartib-taomillarni, yangi qabul qilingan qonun hujjatlari bo'yicha tavsiyalarni ijrochilarga yetkazishda qator manbalar mavjud bo'lib, **Bundesanzeiger** jurnali va Federal Ichki ishlar vazirligi nashri bo'lgan **Gemeinsames Ministerialblatt** (Hukumat vazirliklarining qo'shma gazetasi) ularning eng asosiylari hisoblanadi.

Bundan tashqari, qonunchilikning muayyan tor sohalari bo'yicha nashrlar – Federal Mehnat vazirligining **Bundesarbeitsblatt** (Federal Mehnat Qonuni

¹ <https://www.bgbl.de/?main=041>

² (German Basic Law) BVerfG, 2 BvE 2/08 vom 30. Juni 2009, Absatz-Nr. 218; vgl. dazu die Bezeichnung des Grundgesetzes als „deutsche Verfassung“ in 2 BvR 1481/04 vom 14. Oktober 2004, Absatz-Nrn. 33, 35 oder, unsere bundesstaatliche Verfassung“ in BVerfGE 16, 64 (79).

Gazetesi) yoki Federal Moliya vazirligining **Bundessteuerblatt** (Federal Soliq Gazetesi) nashrlari ham ijrochilar uchun muhim axborot manbasi sanaladi.

XX asrning 70-yillarida Federal Adliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Juris” ma'lumotlar bazasi shubhasiz Germaniya Federativ Respublikasining eng asosiy huquqiy axborot tizimi hisoblanadi. Ushbu yuridik ma'lumotlar bazasi yillar davomida huquqiy hujjatlar va sud qarorlarini yagona platformada to'plash orqali yuridik axborot bilan tanishish imkoniyatini demokratlashtirdi. Mazkur manba ko'p jihatlari bilan milliy qonunchilimizdagi “Lex.uz” portalini eslatadi. E'tiborli tomoni Germaniyadagi "eng qadimgi" yuridik ma'lumotlar bazasi “Juris” 1980-yillarda xususiylashtirilgan. Aksariyat ulush hali ham Germaniya federal hukumatiga tegishli, qolgan aksiyalarni bir necha yil oldin Gollandiyada joylashgan “Sdu” nashriyoti sotib olgan³.

Yaqinda Germaniya hukumati “Juris” bazasi bilan hamkorlikda federal ma'muriy qonun-qoidalar uchun maxsus raqamli portal (*Verwaltungsvorschriften im Internet*) ishga tushirdi. Ushbu portal keng jamoatchilikka turli federal hukumat vazirliklari tomonidan chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan bepul tanishish va foydalanish imkonini berdi. vakolatli federal organlar tomonidan doimiy ravishda yangilanib turilgani bois ular "tirik hujjatlar" deb ataladi

2020-yillardan boshlab “Juris” tizimiga sun'iy intellekt (SI) algoritmlari integratsiya qilinib, foydalanuvchilar uchun kontekstual qidiruv, hujjatlar tahlili, SI asosidagi yuridik maslahatlar va “smart search” funksiyalarini amalga oshirish imkonini berdi (Braegelman, 2021; Schweighofer, 2022).

O'zbekiston Respublikasining “Lex.uz” milliy qonunchilik portalini Germaniyaning “Juris” tizimiga ma'lum darajada o'xshash bo'lsa-da, u hali sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tahlil va kontekstual hujjat bog'lanmalarini taqdim eta olmaydi. Shu sabab quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb deb bilamiz:

³ https://www.nyulawglobal.org/globalex/Germany1.html#Section_8_1

- Ma'lumotlar bazalarining avtomatik tahlili — O'zbekiston qonunlari o'rtasidagi kolliziyalar, takrorlanishlar va mantiqiy uzilishlarni avtomatik va tez fursatda aniqlash;

- Blokcheynli notarial ro'yxatlar — rasmiy e'lonlarning o'zgarmasligini va haqiqiylikini kafolatlash;

- Chatbot-yordamchi huquqiy maslahatchilar — oddiy fuqarolar va tadbirkorlar uchun qonun bilan bog'liq savollarga tezkor javob beruvchi sun'iy intellekt dasturlarini joriy etish;

- LegalTech startaplarni qo'llab-quvvatlash — xususiy yuridik xizmatlar ko'rsatish imkoniyati beruvchi dasturlar va texnologik kompaniyalarni qo'llab quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda, Germaniyada huquqiy axborot tizimining raqamlashtirilishi va SI texnologiyalarining integratsiyasi huquqiy tizimning shaffofligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. O'zbekiston huquqiy tizimida ham shu kabi yondashuvlar, xususan, "Lex.uz" portalida SI imkoniyatlaridan foydalanish, notarial amaliyotda blokcheyn texnologiyasini joriy qilish bizni zamonaviy huquqiy davlat sari yanada yaqinlashtiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bundesgesetzblatt. Bundesministerium der Justiz. <https://www.bgbl.de>
2. Verwaltungsvorschriften im Internet: <https://www.verwaltungsvorschriften-im-internet.de/>
3. Braegelmann, H. (2021). AI in Legal Information Systems. European Journal of Legal Tech, Vol. 3(1).
4. Schweighofer, E. (2022). LegalTech and AI: Challenges for European Jurisdictions. Artificial Intelligence and Law, 30(2), 143–158.
5. Lex.uz portal. <https://lex.uz>
6. Bundesanzeiger & Gemeinsames Ministerialblatt. <https://www.bundesanzeiger.de/>